



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Allamberganova Nodira Gulmurzaevna

*NukusDPI O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti f.f.f.d. (PhD).  
farzona\_n@mail.ru. +998906529815*

## AJINIYOZ LIRIKASIDA MUMTOZ AN'ANALAR IFODASI

### ANNOTATSIYA

Qoraqalpoq mumtoz adabiyotining yirik vakili Ajiniyoz Sharq mumtoz adabiyotini puxta o'zlashtirgan, klassik she'riyatning go'zal an'alarini munosib davom ettirgan iste'dodli shoirdir. Uning asarlari nafaqat qoraqalpoq adabiyotida, balki, qardosh xalqlar adabiyotida ham munosib o'ringa ega. Mazkur maqolada shoirning turli mavzularda yozilgan lirik asarlari tahlili orqali shoir ijodida qo'llanilgan she'riy shakllar va tasviriy vositalar haqida so'z yuritiladi.

**TAYANCH SO'ZLAR:** She'r, an'ana, murabba', muxammas, badiiy tasvir vositalari.

### АННОТАЦИЯ

Крупный представитель Каракалпакской классической литературы Аджинияз-талантливый поэт, овладевший Восточной классической литературой, достойно продолживший прекрасные традиции классической поэзии. Его произведения занимают достойное место не только в Каракалпакской литературе, но и в литературе братских народов. В данной статье рассматриваются поэтические формы и изобразительные средства, использованные в творчестве поэта путем анализа лирических произведений поэта, написанных на различные темы.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Поэзия, традиция, мурабба, мухамас, средства художественного изображения.

### ANNOTATION

A major representative of Karakalpak classical literature, Ajiniyaz is a talented poet who mastered Eastern classical literature and worthily continued the wonderful traditions of classical poetry. His works occupy a worthy place not only in Karakalpak literature, but also in the literature of fraternal peoples. This article examines the poetic forms and visual means used in the poet's work by analyzing the poet's lyrical works written on various topics.

**KEY WORDS:** Poetry, tradition, murabba', mukhamas, means of artistic representation.

**Kirish (Introduction).** Qoraqalpoq mumtoz adabiyotining yirik vakili, donishmand shoir Ajiniyoz tavalludining 200 yilligini keng nishonlash YUNESKOning xalqaro yubileylar rejasiga kiritilgani hamda muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning “Atoqli Qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori qoraqalpoq mumtoz adabiyoti tarixida muhim o‘ringa ega bo‘lgan, o‘z she‘rlarida qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq va turkman xalqlarining azaliy do‘stligini kuylagan, adabiy alaoqalarining mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shgan gumanist shoir ijodiga davlatimiz va hukumatimizning yuksak ehtiromi namunasidir.

Ajiniyoz (Zavar) 1824-yili hozirgi Mo‘ynoq tumanida tavallud topgan. Dastlab Xo‘jamurod eshon madrasasida ta‘lim oladi. Keyinchalik, Elmurod oxun qo‘lida tahsilini davom ettiradi. Ilm va ijod sirlarini o‘rganishga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi uni yana bilim olishga undaydi. Shoir o‘z davrining ziyoli insonlari ko‘magi bilan Xivadagi Sherg‘ozi madrasasiga o‘qishga kiradi. Keyinchalik, Qutlimurod inoq madrasasida tahsil oladi. Madrasadagi og‘ir turmush tarzi, moddiy yetishmovchiliklarga qaramasdan ilm olishdan charchamagan Ajiniyoz sharq mumtoz adabiyoti vakillari ijodini qunt bilan o‘rganadi. Ularni o‘ziga ma‘naviy ustoz deb biladi. Donishmand shoirlar ijodidagi ezgu an‘analrni munosib davom ettiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Ajiniyoz asarlarining nashr qilinishi XIX asrning oxirlariga to‘g‘ri keladi. Shoirning aytishuvi “Turkiston viloyati gazetasi”ning 1878-yil 11-sentabr sonida “Ajiniyozning Qiz Mengesh bilan aytishuvi” sarlavhasi ostida gazetaning ikki sonida to‘liq nashr qilingan[4.5]. Bu nashr shoir asarlarining ilk nashri sifatida qadrlidir. Shundan so‘ng, Ajiniyozning turli yillarda tanlangan asarlari qayta-qayta nashr qilinadi. Mazkur asarlarni ilmiy jihatdan o‘rganish natijasida Qoraqalpog‘istonda ajiniyozshunoslik fani rivojlana boshlaydi. Shoir haqida dastlabki yirik tadqiqot Najim Davqaraevning qoraqalpoq klassik shoirlarini o‘rganishga qaratilgan dissertatsiyasi bo‘ldi.

O'tgan asrning oltmishinchi yillariga kelib I.Sag'itov, Q.Maqsatov, A.Murtazaev kabi olimlar shoir ijodiga tegishli tadqiqot natijalarini e'lon qilishdi. Ajiniyoz asarlarining qo'lyozma variantlarini o'qish va bu haqidagi ilmiy munosabat ham ajiniyozshunoslik fani taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Shuningdek, shoir T.Jumamuradovning "Ajiniyozning oltin xazinasini kir chalmasin" mavzusidagi ko'lamdor maqolasi, K.Mambetovning "Qoraqalpoq adabiyotida Sharq klassiklari dasturlari" mavzusidagi nomzodik dissertatsiyasi mazkur yillardagi ajiniyozshunoslik fanining yutuqlari edi.

Ajiniyoz asarlarini o'rganish XX asrning 70-80 yillarida ham o'ziga xos shaklda davom etdi. Bu davrda A.Murtazayevning "Shoirning muhabbati" B.Qalimbetovning "Ajiniyoz lirikasi" nomli monografiyalari nashr qilindi.

Ajiniyoz haqidagi ilk tadqiqot muallifi N.Davqaraev bo'lsa, undan keyin I.Sag'itov, S.Axmetov, Q.Maqsatov hamda B.Ismoilovlar turli yillarda katta-kichik tadqiqotlarini e'lon qilib bordilar. Shuningdek, A.Karimov, K.Mambetov, Q.Sultanov, S.Bahadirova, H.Hamidov, Q.Kamalov, A.Paxratdinov, I.O'tao'liev, K.Allambergenov, A.Pirnazarov kabi olimlar Ajiniyozning shoirlik mahorati, badiiy obrazlari va shoir ijodining o'ziga xosliklari haqida maqolalar e'lon qildilar.

Ajiniyoz tavalludining 170 yilligi munosabati bilan Kamal Mambetovning "Ajiniyoz" ilmiy ocherki 1994-yili nashr qilindi. Mazkur asar Ajiniyoz hayoti va ijodi, asarlari hamda ajiniyozshunos olimlar haqida ma'lumot beruvchi muhim manba sifatida qadrlidir.

2014-yili mamlakatimizda Ajiniyoz tavalludining 190 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan K.Allambergenov, A.Paxratdinov, Sh.Ayapovlar shoirning "Bulbulzabon" nomli tanlangan asarlarini nashrdan chiqarishdi. Mazkur asar K.Allambergenovning "Ma'naviy go'zallik timsoli" nomli maqolasi bilan boshlanadi. To'plamda shoirning she'rlari mavzulashtirilgan holda berilishidan tashqari, lug'at va izohlarning keltirilishi shoir ijodini o'rganuvchilar uchun muhim manba bo'la oladi.

Ajiniyozshunos olim Abdisayit Paxratdinovning "Ajiniyoz shoirning badiiy dunyosi" nomli kitobi Ajiniyoz ijodining yangicha yondasuvlar asosida tahlil qilingani bilan ahamiyatlidir.

Ajiniyoz asarlari nafaqat adabiyotshunos olimlar, balki, tilshunoslar tomonidan ham turli aspektlarda o'rganilib kelinmoqda. Gulmira Qarlibayevaning "Ajiniyoz asarlari tilining semantik-stilistik o'ziga xosliklari" nomli monografiyasi 2017-yili nashr qilingan bo'lib, unda Ajiniyoz asarlari tili semantik va stilistik jihatdan o'rganiladi. Shoirning o'z ona tilining bilimdoni bo'lishi bilan birga uning arab va fors tillarini, shuningdek, eski o'zbek tili va yozuvini ham mukmmal bilganiga e'tibor qaratiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Mavzu yuzasidan izlanishlar olib borishda o‘zbek va qoraqalpoq hamda jahon adabiyothunosligida olib borilgan tadqiqotlarga suyanildi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy va struktural tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** O‘zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov Ajiniyozni o‘ziga ustoz deb biladi va uni “Dala Orfeyi” deb ataydi. Shoirning “Ayt sen, Ajiniyozning qo‘shiqlaridan” she‘ri Ajiniyoz asarlarining epigrafiga o‘xshaydi.

Ayt sen Ajiniyozning qo‘shiqlaridan,  
Yig‘lasin yor ishqı bag‘rin teshganlar.  
Bo‘zlasin yurtidan ayro tushganlar,  
Ayt sen Ajiniyozning qo‘shiqlaridan...[5.19]

Mazkur to‘rtlikda keltirilgani kabi Ajiniyoz lirikasida vatan va muhabbat mavzusida bitilgan she‘rlar katta hajmga ega. Shoirning “Ellarim bordir”, “Mengzar”, “Bordur”, “Elni ko‘rar kun bormikan?”, “Ko‘rindi” kabi she‘rlari va “Bo‘zatov” poemasi Ajiniyozning vatan mavzusidagi eng sara she‘rlari bo‘lib, ularda xassos shoirning o‘z tug‘ilib-o‘sgan vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati, undan ayro tushgandagi sog‘inchlari yuksak mahorat va samimiyat bilan qalamga olinadi:

Arzıw áyler kónlimiz óz yurtımızǵa bargalı,  
Yarıw-doslar hám qádirdan bilán júrgeli,  
Ráhım áyle patshahım, elge jetker sen meni,  
Ya ilahım, elimdi kórer kúnler barmeken?[2.44]

Shoirning hayot yo‘liga nazar solsak, uning uzoq yillar vatanidan ayro yashaganiga guvoh bo‘lasiz. Safardan keyin ot ustida kelayotgan shoirning hayajonlari “Ko‘rindi” she‘rida xalqona ohanglarda jaranglaydi:

Áfiw etiń, biradarlar,  
Elim kórindi, kórindi.  
Kóp saǵinip, intıq bolǵan,  
Jerim kórindi, kórindi [2.46].

Ajiniyoz ham sharq mumtoz shoirlari kabi muhabbat mavzusini qalamga olar ekan, ma‘shuqa go‘zalligini an‘anaviy chizgilarda, o‘ziga xos ohanglarda go‘zal bir shaklda ifoda qiladi:

Ay-álip kim, aq yúzińdúr aynı álám anwariy,  
Be- belin qıpsha dilbar, kóz ǵanań shahla wáliy,  
Te- tisińdúr dana - dana láblerińiń pallarıy,  
Se- sorıp shiyrin lábiń qanadurman, áy páriy  
Jım- jımalıń kórmegenshe zarı giryan Ziywariy [2.33].

Muxammas shaklida bitilgan, bosh-oxir kitobot san'atiga qurilgan mazkur she'rning har bir misrasi arab alifbosidagi harflardan boshlanadi. Mazkur harflarning turli shakllari orqali ma'shuqaning go'zal siymosi ta'riflanadi. Sharq mumtoz she'riyatidagi kabi "Alif" ma'shuqaning tik qomatiga "Be" harfi uning xipcha beliga, "Te" harfi ma'shuqaning dona-dona tishlariga qiyoslanadi. Mazkur ifodalar Ajiniyozning sharq mumtoz she'riyatini puxta o'zlashtirganidan, she'r shakllarini va an'anaviy tasvirlarni mahorat bilan qo'llay olganidan darak beradi.

... Qosqay deymen bir alladan tilermen,  
Íshqín firaqíña dayım shúmermen,  
Táhir kibi hár qıyalğa dónermen,  
Ziywárińdı hayran etmey tur endi [2.30].

Sharq adabiyotidagi murabba' shaklida yozilgan b-b-b-a shaklida qofiyalanib 7 banddan tuzilgan mazkur she'rning oxirgi bandida shoirning taxallusi keltiriladi. Ajiniyoz o'z she'rlariga Zevar, Zevariy taxalluslarini qo'llagan. Mazkur bandda qo'llangan talmeh (nazar solmoq) san'ati orqali "Tohir va Zuhro" dostoni voqealariga ishora qilinadi. Tohir suvda oqib ketgan bo'lsa, she'rning lirik qahramoni firoq dengiziga cho'kmoqda. Mazkur baytda tashbeh (o'xshatish) san'ati qo'llanilganligini "kabi" so'zidan anglash mumkin. Bir baytning o'zida bir necha badiiy san'tlarni o'rinli qo'llash va shu orqali go'zal badiiy tasvirlar yaratish shoirning yuksak iste'dodi va san'atkorligi belgisidir.

Ajiniyozning "Nega kelmading" she'ri A.Navoiyning "Kelmadi" radifli g'azalini esga soladi.

Qálem qashlı, xosh qılıqlı nigárim,  
Aq tamaq, qıpsha bel súyikli yarım,  
Bul dúnyada ashıq bolğan inkarım,  
Zarı- giryan etti, nege kelmedi? [2.30]

Mazkur she'r ham murabba' shaklida qofiyalangan, to'rt banddan iborat. Oxirgi bandda shoirning taxallusi keltiriladi. Ishqiy lirikaga mansub mazkur she'rda ma'shuqaning go'zalligi turli badiiy vositalar orqali tasvirlanadi. Lirik qahramonning uni intiqib kutgani, biroq ma'shuqaning kelmaganligi oshiqning ishq yo'lidagi iztiroblari bayon qilinadi.

Ajiniyoz sharq adabiyotining eng go'zal an'analari davom ettirgan mumtoz shoirdir. Uning "Yaxshi" radifli she'ri shakl jihatdan turkman klassik shoiri Maxtumquli asarlariga, mazmun jihatidan Navoiy asarlariga yaqin turadi.

Oadam borki, odamlarning naqshidur,  
Odam borki, andin hayvon yaxshidur.

(Navoiy)

Aslo odamzodga achchiq so'z qilmang,



Faqir-u miskinga adalolat yaxshi.  
Baxilga uchramang – kularyuz bo‘lmang,  
Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.

(Maxtumquli)

Adam uli adam qádrin bilmese,  
Onnan dúzde otlap júrgen mal jaqsı.  
Aytqan sózdiń maǵanasın bimese,  
Ol admnan tilsiz ósken lal jaqsı.

(Ajiniyaz)

Mumtoz shoirlarning didaklik lirikaga mansub mazkur she’ri “Yaxshi” so‘zining radif sifatida qo‘llanilgani bilan yuqoridagi baytlar bilan o‘xshlik kasb etadi. Maxtumquli va Ajiniyoz asarlarining qofiyalanish tartibi ham, turoqlanish tartibi ham bir xil. Har ikkalasi ham 11 bo‘g‘inli barmoq vaznida va murabba’ shaklida yozilgan.

Ajiniyoz ma’shuqa obrazini tasvirlashda ham sharq mumtoz an’alariga sodiq qoladi. “Ajiniyoz XIX asrdagi oshiqalar obrazini yaratishda o‘ziga xos yo‘l tutadi. U tasvirlagan go‘zallar obrazi faqat bayondan iborat emas”, - deydi K.Mambetov [4.44]. Shoirning “Bir jonon” sher’ridagi ma’shuqa portreti uchun ishlatilgan tasvirlar sharq mumtoz adabiyotida an’anaviy tashbehlarning Zevarona ifodalaridir: “Kiprigi óq kibi, qashlari kaman”, “Ziya-zulpi rañli mısalı qunduz”, “Ziya-zulpi tal-tal, shashlari sumbul”, “Shashmi jadu jallet qashlari qalem”, “Zarli Zuhra, Sanem kibi qıpsa bel”[2.13]. Mazkur ifodalar orqali ma’shuqaning kamon qoshi, o‘qday kipriklari, qunduz kabi qora sumbul sochlari, jallod ko‘zlari, qarashlari, Zuhro yanglig‘ hipcha beli tasvirlanadi va ma’shuqaning go‘zal portreti yaratiladi. Ajiniyoz qoraqalpoq adabiyotida ishqiy lirikaning betakror namunalarini yarata olgan mumtoz shoirdir.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ajiniyoz she’rlarining mazmun doirasi rang-barang, uning ijodida vatan, muhabbat mavzularidan tashqari, ijtimoiy lirikaga mansub asarlar, hazil-mutoyiba asosida yozilgan she’rlar, pandnoma xarakteridagi bitiklar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, Ajiniyozning aytishuvlari, xayrlashuv va salomnoma shaklidagi she’rlari shoirning yuksak mahoratidan, badihago‘yigidan darak berib turadi.

Ajiniyoz she’rlarida sharq mumtoz adabiyotining eng go‘zal an’alari shoirning san’atkorlik mahorati natijasida yanada sayqallanib, oxoriy tashbehlar yaratiladi. Ajiniyoz asarlari yuksak ma’naviy boyluk sifatida hamisha qadrlanadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Qarori. “Atoqli Qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siyoy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/-7021660>
2. Ajiniyoz. Bulbulzabon. Tanlangan asarlar. Nukus -2014
3. Ajiniyoz.(Biografik ko‘rsatkich). Nukus -2003
4. Mambetov K. Ajiniyoz. (Ilmiy ocherk) Nukus. Bilim-1994.
5. Yusupov I. “So‘fito‘rg‘ay salomi” She‘rlar. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2015.